

## YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA MAHALLIY BUDGET DAROMADLARINING AHAMIYATI

**Nabiyev Olimjon Abdisalomovich**  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
ORCID: 0009-0009-0072-9356

**Annotatsiya.** Maqolada hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini barqarorligini ta'minlash bo'yicha Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda mahalliy budget daromadlarining hududlar bo'yicha ahamiyatini oshirishning dolzarblii asoslangan va bog'liq muammolarni hal etish bo'yicha amaliy taklif va xulosalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** mahalliy budget daromadlari, kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, daromadlar manbalari, quyi va yuqori mahalliy budget daromadlari, daromadlar tabaqalashuvi.

### ВАЖНОСТЬ ДОХОДОВ МЕСТНОГО БЮДЖЕТА В РЕАЛИЗАЦИИ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

**Набиев Олимжон Абдисаломович**  
Экономико-педагогический университет

**Аннотация.** В целях обеспечения стабильности социально-экономического развития региона представлены практические предложения и выводы, обосновывающие актуальность повышения региональной значимости доходов местных бюджетов в реализации стратегии развития Нового Узбекистана.

**Ключевые слова:** классификация доходов местных бюджетов, комплексное социально-экономическое развитие, источники доходов, нижние и верхние доходы местных бюджетов.

### THE IMPORTANCE OF LOCAL BUDGET REVENUES IN THE IMPLEMENTATION OF THE DEVELOPMENT STRATEGY OF NEW UZBEKISTAN

**Nabiev Olimjon Abdisalomovich**  
University of Economics and Pedagogy

**Abstract.** In order to ensure the stability of the socio-economic development of the region, practical proposals and conclusions are presented that substantiate the relevance of increasing the regional importance of local budget revenues in the implementation of the development strategy of New Uzbekistan.

**Key words:** classification of local budget incomes, comprehensive socio-economic development, sources of income, lower and upper incomes of local budgets.

## Kirish.

Ijtimoiy omillar ahamiyati o'sib borishi aholi turmush farovonligini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish muhimligini anglatadi. Shuning uchun har qanday islohotlar dastlab inson manfaatlarini ustun darajada e'tiborga olish zarurligini taqazo etadi.

So'ngi davrda mamlakatda milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rilmoxda.

Inson manfaatlari ustun qo'yilishi, iqtisodiy erkinlik kafolatlari berilishi farovonlikka erishish garovidir. Bunda iqtisodiy erkinlik daromad topish erkinligini keltirib chiqaradi. Daromadlar shakllanishi va tabaqalanishiga:

- ijtimoiy-iqtisodiy erkinlikka bo'lgan intilish;
- daromad keltiruvchi mulkka ega bo'lish, uni tasarruf etish va ishlatish;
- ijtimoiy subyektlarning iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lishga moyilligi;
- bozor ishtirokchilarining imkoniyat darajasida kam resurs sarflab, ko'proq daromad olish va farovon hayot kechirishga bo'lgan harakati;
- erkin tadbirkorlik bilan shug'ullanish va buning uchun ijtimoiy institutlar xizmati talab darajasida tashkil etilganligi kabi iqtisodiy erkinlik omillari ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlar asosida har yili barcha tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini chuqur o'rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqilmoqda.

O'z navbatida mahalliy budgetlar daromadlarini shakllantirish doirasida ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilish va ustuvor tarmoqlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan muhim loyihibar barcha hududlarning talablari va mahalliy tashabbuskorlarning takliflarini inobatga olgan holda mahalliy jamoatchilik ishtirokida keng muhokama qilinganidan keyin qabul qilinish mexanizmi joriy etilmoqda. Taraqqiyot strategiyasida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida hududlar bilan ishlashning yangi tartibi o'rnatildi.

## Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqot mavzusi doirasida mamlakatda amalga oshirilayotgan manzilli islohotlarning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari (Farmon, 2023), shuningdek hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning shahar va tumanlar kesimidagi maqsadli ko'rsatkichlari (Qaror, 2022), jumladan Qashqadaryo viloyatidagi mahalliy budget daromadlarining holati atroficha tahlil qilingan<sup>69</sup>. Bunda Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi ma'lumotlari, internet ma'lumotlari<sup>70</sup>, hamda darslik va o'quv qo'llanmalardan keng foydalanildi.

## Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy tadqiqot davomida ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy va taqqoslama tahlil usullaridan foydalanildi. Jumladan, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyatini oshiruvchi mahalliy budget daromadlarining xususiyatlari, hududda mavjud mahalliy budget daromadlari orasidagi tafovut taqqoslanma tahlil qilindi.

O'zbekistonda tashabbusli budgetlashtirishni joriy etish bo'yicha dastlabki qadamlar ijobjiy natijalarni ko'rsatgan bo'lsada, hali oldinda budget jarayoniga fuqarolarni keng jalb etish bo'yicha amalga oshirilishi kerak bo'lgan bir qancha ishlar turibdi. Shu nuqtai nazardan mahalliy budgetlar daromad bazasini ko'paytirish uchun soliq islohatlarini yanada chuqurlashtirish bo'yicha xulosalar keltirilgan.

<sup>69</sup> Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari.

<sup>70</sup> <https://www.xabar.uz/uz/koronavirus/aholini-daromadi-keskin-kamayishini>

## Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'ngi yillarda mamlakatda milliy iqtisodiyotni isloq qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'naliishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rirlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi (Farmon, 2023).

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash, Qashqadaryo viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning «o'sish nuqtalari»ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi. (1-jadval)

Ushbu qarorda belgilangan vazifalar doirasida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilangan yangi tartib asosida Qashqadaryo viloyatining tuman va shaharlaridagi mavjud muammo va imkoniyatlar chuqur o'rganilgan holda, hududlar kesimida muhim loyihiilar shakllantirilganligi va mahalliy jamoatchilik ishtirokida keng muhokama qilinindi. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida 2022-2026 yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,5 baravar, sanoat mahsulotlari hajmini 1,5 baravarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,2 baravar, xizmatlar hajmini 2,9 baravar hamda qurilish ishlari hajmini 1,2 baravarga oshirishni nazarda tutuvchi shahar va tumanlar kesimidagi maqsadli ko'rsatkichlar parametrlari tasdiqlandi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, hamda Qashqadaryo viloyati hokimligi bilan birgalikda 2022-2026-yil uchun tasdiqlangan maqsadli ko'rsatkichlar parametrlariga erishish uchun aniq manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirilmoqda.

Qashqadaryo viloyatida mahalliy budget daromadlarining tumanlar va shaharlar kesimidagi holatiga e'tibor qaratilganda mahalliy budgetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga yo'naltirib borilgan. Bunda, viloyat, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari, Yoshlar ishlari agentligi, tuman (shahar)lar hokimliklari huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari, fuqarolarning budget jarayonida faol ishtirokini ta'minlash maqsadida, aholiga keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas'ul etib belgilan bo'lib, mahalliy budgetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro'yxati, shuningdek qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik e-qaror.gov.uz rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilmoqda. Shuningdek viloyat hokimining tegishli mutassaddi xodimi, xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati, tumanlar va shaharlar hokimliklari, tegishli boshqarmalar boshliqlari: mahalliy budget daromad va xarajatlari proqnoz ko'rsatkichlarini amalga oshirish hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, ajratilgan budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish yuzasidan erishilgan natijalar bo'yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib boorish tizimi yo'lga qo'yilgan.


1-jadval

**2022—2026 yillarda Qashqadaryo viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning shahar va tumanlar kesimidagi MAQSADLIKO'RSATKICHLARI (Qaror, 2022)**

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Ko'rsatkichlar					
			Jami	Yillarkesimida				
				2022	2023	2024	2025	2026
1.	Yalpi hududiy mahsulot(YAHM)	Hajmi (trlnso'm)	1,5barobar	47,8	54,9	62,8	72,0	82,0
2.	Sanoat mahsulotlari	Hajmi (trlnso'm)	1,5barobar	21,1	24,0	28,0	32,7	38,7
3.	Qishloq xo'jaligi	Hajmi (trlnso'm)	1,2barobar	30,4	31,5	32,9	34,5	36,3
4.	Xizmat ko'rsatish	Hajmi (trlnso'm)	2,9barobar	20,2	27,7	32,8	37,8	44,2
5.	Qurilish ishlari	Hajmi (trlnso'm)	1,2barobar	6,6	7,3	8,4	9,6	10,3
6.	Budget tushumlari	Hajmi (mlrd.so'm)	22147	3483	3873	4357	4905	5528
7.	Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratiladigan kreditlar	Mlrd. so'm	4375	800	835	870	910	960
8.	Noqishloq yerkarni auksionga chiqarish	Gektar	297,7	86,6	52,8	52,8	52,8	52,8
9.	Ishsizlik darajasi	Foiz	X	9,2	8,5	8,0	7,8	7,6
10.	Kambag'allikni qisqartish	Foiz	50	9,4	9,7	10,0	10,3	10,6
11.	Jami bandligi ta'minlanadigan aholi soni	Ming kishi	438,4	82,7	84,8	87,6	90,1	93,2
12.	Mehnat faoliyatini legallashtirish	Ming kishi	180,6	35,0	35,4	36,1	36,8	37,2
13.	Jamoat ishlarini kengaytirish	Ming kishi	70,9	12,9	13,5	14,3	15,0	15,4
14.	Yangidan tashkilqilinadigan kichik biznes subyektlari soni	Birlik	51585	10048	10068	10087	11273	10109
15.	Kichik sanoat zonalarini tashkil etish	Ta	72	12	15	15	15	15
16.	Investitsiya loyihalarini ishga tushirish	Loyiha soni Qiymati (mln.doll)	3832 3579,2	600 401,5	696 689,3	767 758,4	845 823,8	924 906,2
17.	Hududiy eksport hajmi	Mln. Dollar	1652,6	256,4	284,6	327,2	366,5	417,9

1-rasmda aks ettirilganidek, o'tgan 3 yil davomida, ya'ni 2019-2021 yillar mobaynida Qashqadaryo viloyati mahalliy budget jami daromadlari sezilarli darajada o'zgarib borgan. Xususan, 2020 yildan 2019 yilga nisbatan 35,0% ga kamaygan bo'lsa, 2021 yili 2020 yilga nisbatan 10,0 % ga oshganligini kuzatishimiz mumkin.

Mahalliy budget daromadlarining shakllanish manbalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan qaror va qonunlar, asosoan tadbirkorlik faoliyatini, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgani hamda ularga berilayotgan soliq imtiyozlari bois, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i 2019 yili jami daromadlarning 11,1% ini tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilga kelib 8,9% ni, va nihoyat 2021 yilga kelib esa bu ko'rsatkich jami daromadning 6,8% ini tashkil etdi. Bundan tashqari, mamlakatning kuchli ijtimoiy siyosat yuritishidan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i jami pul daromadlari ulushida muhim ahamiyat kasb etadi.



**1-rasm. Qashqadaryo viloyati mahalliy budgeti daromadlarining 2019-2021 yillardagi holati<sup>71</sup> (mln. so'm.)**

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining jami daromaddagi ulushi yillar mobaynida, 2019-2021 yillar davomida kamayib borgan, lekin shunga qaramay jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga to'g'ri keladigan mahalliy budget daromadlari ko'rsatkichlari oshib borgan. Bu degan so'z, **birinchidan** hudud aholisi o'z daromadlarini topishning turli manbalarini shakllantirishi, xususan, xususiy tadbirdorlik faoliyatini rivojlantirishi evaziga hukumatning ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlari doirasida ularga soliq imtiyozlarini berish orqali ularning daromadlarini oshirib borish bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlarning natijasi sifatida ko'rish mumkin. **Ikkinchidan**, hukumat tarafidan ish haqi, pensiya va nafaqalar ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlarga ajratilayotgan pul mablag'larining oshirib borilayotgani hudud aholisining daromadlarini oshirishi bilan bir qatorda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'igining usha hududning mahalliy daromadlaridagi ulushining ham ortib borishiga sabab bo'ladi.

1-rasmdan ko'rinish turibdiki, 2020 yilda viloyatning jami mahalliy budget daromadi hamda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini ning avvalgi yilga nisbatan keskin pasayganini ko'rish mumkin. Buning asosiy sababi dunyo bo'ylab tarqalgan koronavirus pandemiyasining salbiy oqibatlari bilan izohlanadi.

Koronavirus pandemiyasi sababli dunyodagi millionlab korxona va tashkilotlar o'z faoliyatini to'xtatgani 2 milliard 700 million ishchiga ta'sir ko'rsatdi. Jahonda kambag'al aholi sonining qariyb 2 baravarga yoki 500 million kishiga ko'payish xavfi paydo bo'ldi<sup>72</sup>.

Bunday og'ir sharoitda, birinchi navbatda, hududlarning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy mustahkamligini saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida yuridik shaxslarning soliq yuklarini kamaytirish, hamda jismoniy shaxslarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muammolariga jiddiy e'tibor qaratildi.

1-rasm ma'lumotlaridan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan undiriladigan boshqa turdag'i soliq va yig'imlarning 2020 yilda keskin kamaygani yuqorida aytilgan fikrimizning yaqqol dalili deb hisoblaymiz.

<sup>71</sup> Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari.


<sup>72</sup> <https://www.xabar.uz/uz/koronavirus/aholini-daromadi-keskin-kamayishini>

## 2-jadval

**Qashqadaryo viloyati mahalliy budjet daromadlarining  
2019-2021 yillarda ijrosi to'g'risida<sup>73</sup>(mln. so'm)**

		2019 y	2020 y	2021 y
1	Viloyat budjeti	3 198 157,9	1 195 383,2	1 258 006,6
2	Qarshi shahri	63 081,5	71 658,1	103 453,5
3	Qarshi tumani	36 873,3	83 770,6	98 324,5
4	Mirishkor tumani	24 560,6	50 786,9	89 685,3
5	G'uzor tumani	28 396,8	114 544,8	149 402,9
6	Dehqonobod tumani	38 633,1	79 014,0	86 313,9
7	Qamashi tumani	38 021,0	81 123,4	80 437,2
8	Koson tumani	48 084,6	106 976,0	89 708,5
9	Kitob tumani	48 964,9	92 438,6	101 769,0
10	Muborak tumani	17 428,2	40 032,9	49 342,5
11	Nishon tumani	29 711,2	76 724,7	131 852,1
12	Kasbi tumani	35 206,7	82 301,3	81 674,5
13	Chiroqchi tumani	53 416,6	142 680,3	142 895,4
14	Shahrisabz tumani	37 709,9	89 304,0	86 648,9
15	Yakkabog' tumani	48 172,7	93 034,4	87 548,4
16	Shahrisabz shahri	37 487,3	68 843,4	85 046,3
	<b>JAMI</b>	<b>3783906,0</b>	<b>2468616,5</b>	<b>2722109,6</b>

2019-2021 yillar davomida viloyat mahalliy budjeti daromadlari 2020 yilgi qat'iy chekllovlar va karantindan keyin sekin astalik bilan o'sganligini 2-jadval ma'lumotlaridan kuzatishimiz mumkin, lekin Qashqadaryo viloyati mahalliy budjeti daromadlarining tumanlar kesimida bir munkha keskin o'zgarishlar bo'lganini ko'rsatadi.



**2-rasm. Qashqadaryo viloyatida 2019-2021 yillarda eng yuqori va eng quyi mahalliy budjet daromadlari o'rtasidagi tavofut<sup>74</sup>(mln. so'm)**

<sup>73</sup> Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari

<sup>74</sup> Qashqadaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari.

2019 yilda eng yuqori mahalliy budget daromadlari Qarshi shahri hissasiga to'g'ri kelib, 63 081,5 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda eng yuqori pog'onani Chiroqchi tumani egallab, 142 680,3 mln. so'mni tashkil etgan va 2021 yilga kelib ustunlikni qo'lidan berib, 142 895,4 mln. so'mlik mahalliy budget daromadlari shakllantirilganiga qaramasdan, birinchi pog'onani G'uzor tumaniga bergenligini ko'rish mumkin. Chiroqchi tumani uchun avvalgi yilga nisbatan farq 215,1 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, G'uzor tumani uchun farq 2020 yilga nisbatan 34 858,0 mln. so'mlik pul mablag'ini tashkil qilmoqda.

Tahlil qilinayotgan 2019-2021 davrda eng quyi ko'rsatkichlarni esa har uchala yilda ham Muborak tumani namoyon qilayotganligini ko'rish mumkin. Jumladan, 2019 yilda 17 428,2 mln. so'mlik, 2020 yilda 40 032,9 mln. so'mlik, hamda 2021 yilda ham 49 342,5 mln. so'mlik mahalliy budget mablag'lari shakllantiirlgan. Bu davr mobaynida 2020 yildagi ko'rsatkich avvalgi yilga nisbatan 22604,7 mln. so'm miqdorida oshganligini, keyingi yilga nisbatan 9309,6 mln. so'm kam miqdorni ko'rsatmoqda.

Boshqacha aytganda, 2019 yil uchun eng yuqori (max) hamda quyi (min) ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovutni aniqlasak 45653,3 mln. so'mni tashkil qiladi. Mos ravishda 2020 yil uchun 102647,3 mln. so'm, hamda 2021 yil uchun esa 100060,3 mln. so'mni tashkil etmoqda (2-rasm).

Bu shundan dalolat beradiki, viloyatda tumanlar mahalliy budgetidan shakllangan daromad manbalari o'rtasida tafovut mavjud yoki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi tafovutni kamaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish zarurligini taqozo etadi.

### **Xulosa va takliflar.**

Iqtisodiyotning rivojlanishiga mahalliy budget daromadlari ustuvor ahamiyatga ega. Mahalliy budget daromadlari hudud iqtisodiyotida katalizator rolini amalga oshiradi. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida, ma'lumki mahalliy budget daromadlari asosiy elementlaridan biri davlatdir (ko'pincha xazinachi sifatida) mahalliy budget yetishmovchiliginini komission usulida qoplash vositasi korxonalar va aholining pul mablag'larining aniq masalalarni hal qilishga jalb qilish maqsadida foydalanadi.

Mahalliy budget daromadlari iqtisodiyotning ta'lim, sog'liqni saqlash, ilm-fan va innovatsiyalar kabi ilg'or soha va tarmoqlarni moliyalashtirish orqali hududning uzoq muddatli rivojlanishiga zamin yaratadi, intellektual salohiyatni yaratadi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

O'zbekiston Respublikasida budget tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlatning yaxlit budget va ijtimoiy syosatning manfaatlari mushtarakligini ta'minlash asosidagi o'ta mas'uliyatli vazifalarni samarali boshqarilishini talab etmoqdaki, ushbu vazifaning dolzarb jihatlarini ajratib ko'rsatish muhimdir.

Mahalliy budgetlar daromad bazasini ko'paytirish uchun soliq islohatlarini yanada chuqurlashtirish lozim. Jumladan:

Ushbu masala yuzasidan amaliy tavsiyalar tizimini shartli ravishda uch yo'nalishga bo'lish mumkin: Birinchidan, mahalliy (hududiy munitsipal) mulkni shakllantirish va uni boshqarishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish; Ikkinchidan, mahalliy budgetlar potentsialini mustahkamlash maqsadida soliq tizimini takomillashtirish; Uchinchidan, budgetlararo munosabatlar mexanizmini takomillashtirishda subvensiyalar ulushini kamaytirish. Mahalliy budget tarkibida hududlar haligacha subvensiya oladi. Zamonaviy budget tizimi va budget tuzilishini shakllantirishning, mahalliy budgetlar soliqli daromadlari istiqbolini rejalashtirishni oshirish maqsadida budgetlararo munosabatlarning sifat jihatdan yangi tizimini vujudga keltirishning va ular shakl-usullarini optimal muvofiqlashtirishning yangi konstruktiv yondashuvlarini qidirib topish hozirgi sharoitda mamlakat iqtisodiyotini tobora mustahkamlash jarayonini barqarorlashtirishga xizmat qiladi, boshqaruv hokimiyati turli darajalari teng huquqlilagini hamda, bozor islohotlari natijadorligini o'zlashtirish

imkoniyatlarini ta'minlaydi. O'z navbatida bu fazifalarni amalga oshirishda qonun xujjaligiga roiya qilishda qattiq teskor nazoratni belgilash, hamda fuqoralar va tashkilotlarni soliq to'lash bo'yicha mas'ulyatni oshirishni taqozo etadi.

***Adabiyotlar/ Йумерамып/ Reference:***

Elmirzayev S.E. va boshqalar. (2019) *Moliya bozori. Darslik.* T.: «Iqtisod-moliya», 324 b.

Farmon (2023) “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 24 may. <https://yuz.uz/uz/news/2022-2026-yillarga-moljallangan-yangi-O'zbekistonning-taraqqiyot-strategiyasi-togrisida>.

Malikov T., Olimjonov O. (2020) “Moliya”. *Darslik.* – T.: “Iqtisod-moliya”, 800 b.

Malikov T.S. (2019) *Budjet- soliq siyosati. Darslik.* – T.: “Iqtisod-moliya”.

Nurmuxamedova B., Xamdamov Sh. (2020) “Davlat moliyasi”. *Darslik.* – T.: “Iqtisod-moliya”, – 428 bet.

Qaror (2022) “2022-2026 yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.04.2022 201-son. <https://lex.uz//docs/5971265#5975228>